

BOJXONA ORGANLARIDA XAVFNI BOSHQARISH TIZIMINING BUGUNGI KUNDA

TUTGAN O‘RNI VA UNING AHAMIYATI



Farxodov Farrux Furqatovich

Bojxona instituti Bojxona tartibga solinishi va bojxona to‘lovlari kafedrası o‘qituvchisi **email:**

farrux.farxodov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14198227>



Sherboboyev Damir O‘ktam o‘g‘li

Bojxona instituti 4-kurs BI-221-guruh kursanti.

email:sherboboyevdamir2@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14198227>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimini bugungi kunda tutgan o‘rni va xavfni boshqarish tizimini xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish yuzasidan takliflar berib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xavf, xavfni boshqarish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari, xavfni boshqarish tizimi, bojxona, xavflarni aniqlash, bojxona nazorati.*

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda tashqi savdo hajmining ortishi sharoitda bojxona organlarining samaradorligini ta’minlagan holda davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash va bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bojxona organlaridagi xavfni boshqarish tizimini, davlatlarning xavfsizligi va iqtisodiy farovonligini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Mamlakatlarning bojxona tizimini quyidagi 3 ta asosiy mezon orqali baholanadi:

1. Xalqaro standartlarga javob beradigan Bojxona kodeksining mavjudligi;
2. Uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning qabul qilinganligi;
3. Xavfni boshqarish tizimining mavjudligi.

Xavflarni boshqarishning tashkiliy masalalari nafaqat ichki nazorat bilan bog‘liq, balki, u strategiya, tizimli boshqaruv, manfaatdor tomonlar bilan aloqa, xavflarni boshqarish tamoyillari, xavflarni tasniflash hamda mavjud jarayonlarga xos bo‘lgan xavflarni minimallashtirishdir.

Kioto konvensiyasi bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimini qo‘llanilishining dastlabki poydevorlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Xavfni boshqarish tizimini joriy etish

Bojxona protseduralarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi Kioto konvensiyasiga qo‘shilish shartlaridan biridir. Shu bilan birga, Bojxona protseduralarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi Kioto konvensiyasiga qo‘shilish esa Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishning shartlaridan biridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bojxona sohasida xavf tushunchasi va xavfni boshqarish bo‘yicha ko‘plab olimlar tadqiqot olib borgan. Xususan Thomas Cantens – Jahon Bojxona Tashkiloti (WCO) doirasida olib borgan tadqiqotlarida xavfni bojxona nazorati jarayonidagi noma’lum yoki nazorat qilinmagan tahdidlar sifatida belgilaydi[5]. U xavfni boshqarishda big data va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkinligini aytadi. Uning tadqiqotlari bojxona xavflarini prognoz qilish va profiling orqali kamaytirish masalalariga bag‘ishlangan. Margarita Tisliakova olima bojxonadagi xavfni nazorat qilish tizimini kuchaytirish uchun xavfni aniqlash va baholashning yangi usullarini o‘rganadi. U xavfni noqonuniy faoliyatlarning paydo bo‘lishiga olib keluvchi omillar bilan bog‘laydi va bojxona tizimlarini xalqaro qoidalarga moslashtirishning ahamiyatini ta’kidlaydi[6]. Rus olimi S.Bogoyavlenskiy xavflarni ularning vujudga kelish sohasi bo‘yicha 4 ta ya’ni tabiiy xavflar, inson faktori bilan bog‘liq xavflar, texnik xavflar va ijtimoiy-iqtisodiy xavflar bo‘yicha shakllanishini aytib o‘tgan[4].

NATIJA VA TAHLIL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-son Farmoni[1] bilan Bojxona qo‘mitasiga tovarlarning bojxona nazoratini tanlov asosida o‘tkazishni nazarda tutuvchi xavfni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish topshirig‘i berildi.

Bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan bojxona qonunchiligiga rioya etishlari, insofli tadbirkorlarni rag‘batlantirish va mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrda “Bojxona ma’murchiligini takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5582-son Farmoni[2] qabul qilinib, xavfni boshqarish avtomatlashtirilgan tizimida 2018-yil 1-dekabrda boshlab “sariq” va “qizil” yo‘laklar, 2019-yil 1-martdan boshlab esa “yashil” va “ko‘k” yo‘laklar joriy etildi.

Xavfni boshqarish tizimining joriy qilishdan maqsad quyidagilardan iborat:

-Bojxona organlarining vakolatlari doirasida davlat xavfsizligini, insonning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ta’minlash;

-Yuqori xavfga ega bo‘lgan sohalarga e’tiborni jamlash va bojxona organlari tasarrufidagi mavjud resurslardan samarali foydalanilishini ta’minlash;

-Tovarlar bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotganda bojxona operatsiyalarining o‘tkazilishini tezlashtirishdan iborat.

Shu bilan bir qatorda, bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimi joriy qilingandan keyin tadbirkorga quyidagi afazalliklarni beradi:

“Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024-yil 22-noyabr, Toshkent, O‘zbekiston

-Eng avvalo, ushbu tizim tashqi savdo aylanmasining oshishiga va xalqaro savdoning rivojlanishiga xizmat qiladi;

-Tashqi iqtisodiy faoliyatning (TIF) halol ishtirokchilarini rag‘batlantirish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish imkonini beradi;

-Bojxona nazorati va rasmiylashtiruviga sarflanadigan vaqt sezilarli ravishda qisqaradi;

-TIF qatnashchisiga individual baho berish va ularning halolligiga qarab saralash, birbiridan farqlash imkoni tug‘iladi;

-TIF qatnashchilariga bojxona ko‘rigidan yengillik yaratiladi;

-TIF qatnashchilarining tovarlari aylanmasi davri qisqaradi.

Xavfni boshqarish tizimi bosqichma bosqich chegara bojxona postlarida ham amaliyotga tatbiq etildi jumladan, 2020-yil avtomobil chegara bojxona postlarida, 2021-yildan avia va temir yo‘l chegara bojxona postlarida joriy etildi.

Tizim ko‘magida tovarlarni bojxona ko‘rigisiz rasmiylashtirish amaliyoti joriy etildi. Xususan, tizim joriy etilishiga qadar barcha tovarlar bojxona ko‘rigidan o‘tkazilar edi. Ushbu tizim joriy etilishidan oldin 2018-yil ko‘rik samaradorligi 0,1%ni tashkil qilgan bo‘lsa tizim joriy etilganidan keyin 2024-yil 5,4%ni tashkil qildi.

Mazkur tizim joriy etilishga qadar barcha TIF ishtirokchilariga bojxona organlari tomonidan bir xil baho berilgan bo‘lsa, hozirda TIF ishtirokchilarini toifalash orqali halollik darajasi bo‘yicha baholanadi.

Shuningdek, rasmiylashtirilgan deklaratsiyalardan 76% tovarlar soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirildi.

Xavfni boshqarish avtomatlashtirilgan axborot tizimidan samarali foydalanilishi, xavflarni minimallashtirish choralari qo‘llanilishi natijasida davlat byudjetiga qo‘shimcha bojxona to‘lovlari undirildi va bojxona qoida buzilishlarini oldi olindi.

Bojxona sohasida yuqori samaradorlikka erishgan davlatlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, ushbu davlatlarda axborot almashinuv tizimlari keng joriy etilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. AQSH tajribasida ko‘radigan bo‘lsak, bugungi kunda barcha jarayonlar to‘liq elektron ma‘lumot almashish asosida qurilgan bo‘lib, barcha yirik portlarda xavfni boshqarish tizimi asosida tanlab olish va xavflarni analiz qilish orqali bojxona nazorati amalga oshiriladi. Kirib keladigan yuklarning qariyb

98 foizi bojxona ko‘rigisiz dasturning mantiqiy nazorati ostida realizatsiyaga ruxsat beriladi.

AQSHning bojxona va chegara xavfsizligi tomonidan xavfni boshqarishni qo‘llashga mo‘ljallangan quyidagi turli dasturlar ishlab chiqilgan va amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etilgan:

- Terrorizmga qarshi kurashish yuzasidan savdo jamiyati bilan hamkorlik dasturi (S-TRAT);
- Konteynerda tashish xavfsizligi dasturi;
- 24 soat qoidasi;
- SENTRI (the Secure Electronic Network for Travelers Rapid Inspection – Safarlarni tezkor tekshirish uchun xavfsiz elektron tarmoq) dasturi.

SENTRI dasturi jismoniy shaxs haqidagi ma’lumotlar oldindan taqdim etilishini va ushbu ma’lumotlar bojxona va chegara xavfsizligi tomonidan tekshirilishini nazarda tutadi. So’ngra beriladigan ro’yxatga olish kartachasidan yuz tuzilishini tezlashtirilgan holda identifikatsiya qilish uchun foydalaniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xavfni boshqarish tizimining joriy etilishi mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash va insofli tadbirkorlarni rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilishi, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining faoliyatini yaxshilaydi va bojxona qonunchiligiga rioya qilishni oshiradi. Bu, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Shuning uchun, bojxona organlari xavfni boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga e’tibor qaratishi lozim. Bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimini xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rgangan holda rivojlantirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflar beriladi:

- chegara bojxona postlari orqali harakat qilayotgan jismoniy shaxslar haqidagi ma’lumotlarni oldindan taqdim etish tizimini joriy etish;
- hududiy boshqarmnalarda ham targetlash bo‘limlarini ochib yo‘laklarni belgilashda target hudud ulushini oshirish;
- xavfni boshqarish tizimida amalga oshirayotgan ishlarini KPI tizimida inobatga olish va yuqari natijaga erishgan xodimlarni rag‘batlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalari harakatini tezkor tartibga solishning optimal usuli xavfni boshqarish tizimi hisoblanadi. xavfni boshqarish tizimi tadbirkorlik subyektlariga bir qator yengilliklar yaratadi. Xususan, ularning ortiqcha sarfxarajati va vaqti tejallishiga, tovar va transport vositalarini “yalpi” nazoratdan o‘tkazishdan voz kechishga, hamda insofli tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini rag‘batlantirishga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi «Bojxona ma’muriyatchiligini takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF5582-son Farmoni.
3. DBQning 2018-yil 18-iyuldagi 469-sonli buyrug‘i, 3/3-son Hay’at qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarining Xavfni boshqarish tizimi konsepsiyasi”.
4. M.Xamrayev, X.Ro‘zmetov, A.Nazarov. Xavfni boshqarish tizimi: Darslik. - Toshkent: BI, 2021 y. – 263 b.
5. World customs journal, article, Kunio Mikuriya and Thomas Cantens.
6. Global Trade and Customs Journal, article, Margarita Tisliakova.

7. Бекмуродов, А., Тураев, Ш., Хасанов, Т., & Бозоров, Р. (2022). Социально-экономическое значение бедности и пути ее снижения: передовой зарубежный опыт и национальная практика. in Library, 22(2), 3-13.

8. Тўраев, Шавкат Шухратович. "СОЛИҚ ЮКИГА ОИД ИЛМИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ." Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” журналы 4 (2021): 324-335.

9. Тўраев, Шавкат Шухратович. "БЮДЖЕТ-СОЛИҚ СИЁСАТИНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ." INTERNATIONAL CONFERENCES. Vol. 1. No. 2. 2023.